

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.PED 82.01RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KAZIYEVA TURG‘UNOY TURSUNBAYEVNA

**TALABALARNING TINGLAB TUSHUNISH, ANGLASH
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA GERMENEVTIK
YONDASHUVDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

CHIRCHIQ- 2024

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертация доктора педагогических наук (DSc)

The content of the abstract of dissertation of the Doctor of pedagogical Science (DSc)

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna

Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobilyatlarini rivojlantirishda hermenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari.....5

Казиева Тургуной Турсунбаевна

Технологии использования герменевтического подхода в развитии способностей аудирования студентов.....33

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna

Technologies of using hermeneutic approach in developing students' listening comprehension skills.....65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....69

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.PED 82.01RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KAZIYEVA TURG‘UNOY TURSUNBAYEVNA

TALABALARNING TINGLAB TUSHUNISH, ANGLASH
QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA GERMENEVTIK
YONDASHUVDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

CHIRCHIQ- 2024

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi globallashuv davrida muayyan tillarni muloqot vositasi sifatida o'rganish, har bir tilni jonli holatda o'rgatish ustuvor vazifa sifatida qo'yilishi bilan ichki va tashqi tilshunoslik o'zaro kesishmoqda. Zero, tilning asosiy vazifasi kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuvni shakllantirishdan iborat ekan, ta'lim muassasalarida asosiy e'tiborni kommunikativ maqsadlarga yo'naltirishning ahamiyati ortmoqda. Bu esa o'quvchilar muloqotining takomillashuviga, ularda erkin so'zlashuv bo'yicha ko'nikma va malakalarning oshishiga qo'yiladigan talablar hamda til materialidan maqsadli foydalanishda ona tili o'qitish mazmunini modernizatsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Tilni muloqot vositasi sifatida o'qitish AQSh, Avstraliya, Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va boshqa qator mamlakatlarda yetakchi yo'nalish sifatida tan olinib, o'qitish uslublari modernizatsiya qilinmoqda. Zamonaviy tillarni o'rgatish bilan bog'liq ilmiy va metodik masalalarning amaliy ahamiyatini belgilash, talabalarga ona tilini muloqot metodlari va kreativ yondashuvlar asosida oqitishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo mamlakatlarida antropotsentrik yoki germenevtik ta'lim tamoyillari rolining kuchayishi til o'rganishga kompetensiyaviy-lingvistik va muloqot faoliyatlari orqali qarash zaruriyatini asoslashga qaratilgan taqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarning lingvistik birliklarni germenevtik ta'limotlar asosida metodik kompetentligini rivojlantirishning amaliy-metodik va ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini filologik ta'lim sohalariga adaptiv qo'llash, lingvometodik tizimini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim pedagogikasida lingvistik birliklarni germenevtik ta'limotlar asosida keng joriy etish, yangi Renessans poydevorini qurishda, pedagogik shart-sharoit talablarini, germenevtik ta'limot asosida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, kreativ, mantiqiy mushohada, madaniyatlararo muvafaqqiyatli muloqot qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash, ularda intellektual qobiliyatlarni namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish"¹ asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan. Bu borada talabalarning tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21- oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi VM-304-son “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germeneytik ta’limotni amalga oshirish texnologiyalariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan: Janubiy Kaliforniya, Mayami universitetlari, Stenford markazi (Amerika qo‘shma shtatlari), Karlsrue ilmiy tadqiqot markazi va amaliy informatika instituti (Germaniya), Lozanna texnologiyalar instituti (Shveysariya), Xalqaro ilmiy jamiyatlar (Society in Europe for Simulation Applied to Education, Society for Simulation in Healthcare, Daniya, Amerika qo‘shma shtatlari), Xitoy pedagogik tadqiqotlar milliy instituti (NIES, Guanchjou), Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya), Sechenov nomli birinchi Moskva davlat universiteti hamda Kazan davlat universitetida (Rossiya federatsiyasi) olib borilmoqda.

Dunyoda talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germeneytik ta’limotni amalga oshirish texnologiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida amaliyotda talabalar ko‘nikmalarini o‘rganish, o‘rgatish, takrorlash imkonini beruvchi texnologiyalarga doir, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: axborotlashtirilgan ta’lim muhitida ta’lim sohasida malakali mutaxassislarning amaliyotga tayyorgarligini takomillashtirishning innovatsion va modellashtirish usullari yaratilgan (Janubiy Kaliforniya, Mayami universitetlari, Stenford markazi, Amerika qo‘shma shtatlari); ijtimoiy jarayonlarda talabalarning

² Mazkur qismni yozishda quyidagi manbalardan foydalanildi: Aerila J.A., & Ronkko M.L. Enjoy and interpret picture books in a child-centered way. *The Reading Teacher*, 68, 2015. 349-356; Bland J. Children’s literature and learner empowerment: Children and teenagers in English language education □ London, United Kingdom: Bloomsbury. 2013; Brahms L., Wardrip P.S. Making with young learners: An introduction. *Teaching Young Children*, 9 (5), 2016. -P.6-8.; Epstein A.S. *The intentional teacher: Choosing the best strategies for young children’s learning* (Rev. ed.). Washington, DC: National Association for the Education of Young Children. 2014; Galda □ L., Liang L.A., & Cullinan B.E. *Literature and the child* (9th ed.). Boston, MA: Cengage Learning. 2017.

tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi germevtik tahlil etishning o'ziga xususiyatlari tahlil qilingan (Lozanna texnologiyalar instituti, Shveysariya) axborotlashtirilgan ta'lim muhitida ta'lim sohasida malakali mutaxassislarining amaliyotga tayyorgarligini takomillashtirishning innovatsion va modellashtirish usullari yaratilgan, ta'limni innovatsion boshqaruv va pedagogik texnologiyalar asosida transformatsiyalash usullari ishlab chiqilgan (Xitoy pedagogik tadqiqotlar milliy instituti); pedagogik monitoringga oid innovatsion mexanizmlar joriy qilingan (Seul milliy universiteti, Janubiy Koreya); ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish hamda o'qitish usullarini va kurslarni joriy qilish borasida o'quv-uslubiy ishlar takomillashtirilgan (Kazan davlat universiteti, Rossiya).

Dunyoda axborotlashtirilgan ta'lim jarayonini takomillashtirish, uning ilmiy va uslubiy ta'minotini shakllantirishga oid, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: axborot texnologiyalari yordamida malakali mutaxassislarni tayyorlashda yangi ko'nikma va kompetensiyalarni egallashga yo'naltirish; zamonaviy ta'lim muhitida pedagoglarning innovatsion faoliyat olib borishga motivatsiyasini shakllantirish; innovatsion texnologiyalardan foydalanib ta'lim jarayoni platformasini amalga oshirish; bo'lajak mutaxassislarining kasbiy, ilmiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.Yusupova va N. Dadajonova kabi tilshunoslar o'z tadqiqotlarida o'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning nutqi ustida ishlash metodikasi asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavuddinova, V.Karimjonova kabi tilshunos olimlar esa ona tili o'qitish asosida mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Sh.Yusupova gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ona tili ta'lim mazmunida metodik va nazariy ta'lim bo'yicha tadqiqotchi olimlar H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Qodirov, A.Nurmonov, A.Sobirov, B.Mengliyev, L.R.Raupova, B.To'xliyev, Sh. Yusupova, T.Ziyodova, O.Oxunjonova, D.Jumashev kabi tilshunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlar yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlarni O.Roziqov, N.Mahmudov, R.Safarova, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, H.Alavuddinova, R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, kabi tilshunos olimlar o'rgangan.

Tadqiqotchi A.Bobomurodova ona tili ta'lim mazmunida o'yin, mustaqil ta'lim topshiriqlardan foydalanishni, metodist T.Ziyadova ona tili ta'limi jarayonida talabalarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etgan va ona tili ta'lim mazmunida matn tahliliga murojaat qilgan. Jumladan, K.Turdiyeva, G.Axmedovalarning o'zbek tili darsligi (tibbiyot institutlarining rus guruhlari uchun)da, o'zbek tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi mustaqil ta'lim topshiriqlari va ulardan foydalanishga oid ishlangan metodik yondashuvlari OTM uchun muhim ahamiyatga ega. Metodikaga doir T.T.G'aniyev ona tilidan mashq bajarish jarayonida talabaning bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. A.Hamrayev ona tili ta'lim mazmunida ta'lim oluvchining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilish asosida ijodiy faoliyatni loyihalashtirishda

ona tili ta'limida uzviylik, uzluksizlik, onglilik, o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikni ta'minlash tamoyillari asosida o'quvchilarning intellektual salohiyatini tizimli tarzda rivojlantirishni ilmiy-metodik jihatdan asoslagan.

Bu borada metodist K.Mavlonovaning "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn asosida integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot ishini alohida ta'kidlash lozim. Olima tomonidan ona tili ta'lim mazmunining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo'lib turgan matn ustida ishlash, uni o'qiy olish, tushuna olish va matn yarata olish ko'nikmalarini adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir izlanishlar I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov M.H.Mahmudov, A.G'ulomov, M.Qodirov, B.R.Adizov, M.Mirtojiyev kabi tilshunos, metodist-pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o'rganilgan. Ayniqsa, professor R.R.Sayfullayeva ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan professor H.Ne'matov g'oyalariga tayanib, ona tili o'qitishda yangi –ortiqcha grammatizmdan voz kechib, talabalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni talaba ongiga singdirish, talabani turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo'nalishini birinchilardan bo'lib boshlab berdi. Pedagogika fanlari doktori, professor R.Safarovaning o'quv-biluv ko'nikmalarni rivojlantirish ona tili ta'lim mazmunining asosiy vazifasi ekanligiga, xususan, mustaqil ta'limtopshiriqlari, shuningdek, didaktik yondashish masalasi, o'zbek tilining davlat tili sifatida o'qitilishi bilan bog'liq muhim masalalarni tadqiq etganini alohida ta'kidlash lozim.

Ona tili ta'lim mazmunining rivojiga munosib hissa qo'shgan metodist olimi pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Yusupova o'zining doktorlik dissertatsiyasida ona tili ta'lim mazmunini takomillashtirishda darslarda o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari yuzasidan tadqiqot olib boradi, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-metodik asosini ishlab chiqish bilan birga tafakkurni rivojlantiruvchi mustaqil ta'lim topshiriqlariga ham alohida individual tipologik e'tibor qaratadi. X.Muhiddinova o'zbek tilining davlat tili sifatidagi ta'limini tizimlashtirishda uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida pedagogik-metodik yondashuv, mustaqil ta'lim topshiriqlarini ham uzluksiz ta'lim tizimi uchun uzviylik tamoyili asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini tavsifladi.N.Mahmudov muallifligida yaratilgan darsliklarda umumiy o'rta ta'lim tizimida birinchi marta mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanishni kuzatishimiz mumkin.

"Ona tili" darsliklarida, asosan, mashqlardan foydalanib kelingan. O'quv materiallarini ona tili va adabiy ta'lim jarayonida o'rganishning didaktik-metodik yondashuviga xos tarzda professorlar Q.Yo'ldoshev, Q.P. Husanboyeva, S. Matchanov, M.M. Mirqosimova, R.X. Niyozmetova S.X.Muxammedova, G.A.Asilova kabi ona tili va adabiyotni o'qitish metodikasiga munosib darajada hissa qo'shgan olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda muayyan darajada e'tibor qaratilgani kuzatiladi. Rus pedagoglari S.L.Rubenshteyn, A.N.Leontyev ta'lim jarayonida umumiy pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida amaliyotga mustaqil

tatbiq etishni taklif etadi. J. A. Ponomaryev va O.R Roziqov kabilar mustaqil o'quv topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o'rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, A.N.Leontyev "mustaqil ta'lim, topshiriq" tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: "Mustaqil ta'lim topshiriqlari – muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo'yilgan aniq maqsaddir". L.R.Raupova o'zbek adabiy tili mazmunida tilshunoslikning ilmiy-nazariy asoslarini o'rgatishni nazarda tutilishini, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ta'kidlaydi. Jahon pedagogikasida mustaqil ta'lim topshiriqlarining metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug'ullangan. Shuni ta'kidlash joizki, G'arb pedagogikasining didaktik jarayoni amaliylikka asosiy e'tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g'oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Til va adabiyot o'qitish muammolari" (2020-2024 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning ijodkorligini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish;

talabalarning nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tuzilmasini ishlab chiqish;

talabalarning obrazli tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish;

matnning germenevtik konsepsiyasini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga ADU, FarDU, Qo'qonDPI, Shahrisabz DPI larining jami 1404 nafar talabalarini jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishning samarali shakl, vosita, usul, metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, kontekstual tahlil, diagnostik (pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa-so'rovnoma) tahlil, prognostik (ekspert, baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), kognitiv-pragmatik, tasniflash, differensial-semantik, qiyosiy-tipologik, intervyu, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil qilish kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning ijodkorligini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari badiiy-estetik yaxlitlik, xissiy anglash

tamoyillarini matn tahlilini leksik vizuallashtirish jarayoniga zamonaviy pedagogik paradigmalar ustuvorligida singdirish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germeneytik yondashuvdan foydalanishning metodik modeli matnni anglashning deduktiv-nomologik, intensional, sababiy-deterministik omillari impulsiga asoslangan didaktik birliklarni talabalarning nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini integrativ rivojlantiruvchi muhitda individullikda qo'llash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germeneytik yondashuvdan foydalanishning lingvodidaktik texnologiyalari talabalarni obrazli tushunishdan mantiqiy fikrlashga motivatsiyalovchi dialoglarni qulay kommunikatsiya jarayonida o'zaro tahlil munosabatlarida transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

germeneytik yondashuvdan foydalanish asosida talabalarda tinglab tushunish, matnni anglash qobiliyatlarining rivojlanganligini baholash mezonlari matn g'oyasini ajratish va semantik jozibasini talqin etishga o'rgatuvchi lingvistik topshiriqlarni refleksiv kommunikatsiya muhitida differensial yo'nalganlikda qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

germeneytik yondashuvdan foydalanish asosida talabalarda tinglash, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti matnni talqin etishning tushunish, hayotiy tahlil va xulosa bosqichlarida kreativ mushohada modellaridan estetik-vizual integratsiyada qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari uchun maxsus o'quv topshiriqlar tizimi tinglab tushunish va anglash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi germeneytik ta'limot texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan;

germeneytik ta'limot asosida talabalarda adabiy til, adabiy talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish, imloviy savodxonlik, so'z ma'nosini tushunish, mustaqil mushohada yuritish kabi nutqiy ko'nikmalarni refleksiv baholash mezonlari ishlab chiqilgan va ularga erishishda qo'llaniluvchi kompleks texnologiyalar aniqlangan hamda "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" nomli darslik nashr qilingan;

talabalarda tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishga oid matnlardan foydalanishga qo'yiluvchi talablarni aniqlash asosida o'qish, tinglash, yozish, gapirish kabi til malakalarini intensiv shakllantiruvchi dars va mashg'ulotlar ishlanmalari modellari ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalari kompetensiyaviy ta'limotlarga hamda semantik yondashuvlarga asoslangan DTS va o'quv dasturlari, shuningdek, darsliklar yaratishda qulay ekanligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot metodologiyasining o'zbek tili o'qitishga oid konsepsiyaga asoslanganligi, tadqiq etilayotgan muammoga tarixiy-falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuvning ustuvorligi, tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fikr-mulohaza, yondashuv va nazariy xulosalar falsafaning umumnazariy masalalari (borliq, rivojlanish, gnoseologiya), fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, falsafa tarixi, nafosatshunoslik, axloqshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, filologiya, siyosatshunoslik, psixologiya, tarix kabi ilm sohalarini boyitganligi, natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Ma’naviyat targ‘ibot markazi, “Yoshlar ittifoqi” harakati tashkiloti hamda boshqa fan va ta’lim, ma’naviyat-ma’rifat tizimidagi subyektlar faoliyatida foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta’limot texnologiyalari o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari uchun maxsus o‘quv topshiriqlar tizimi mazmunida amaliyotga joriy etilganligi, germenevtik ta’limot asosida talabalarda ona tili o‘qitish asosida adabiy til, adabiy talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish, imloviy savodxonlik, so‘z boyligini oshirish va mustaqil ishlay olish kabi nutqiy ko‘nikmalarni hamda tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlari ishlab chiqilgan va kompleks rivojlantirish texnologiyasi amaliyotga joriy qilingan bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari (o‘zbek tili) mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida: talabalarning ijodkorligini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari badiiy-estetik yaxlitlik, xissiy anglash tamoyillarini matn tahlilini vizuallashtirish jarayoniga zamonaviy pedagogik paradigmalar ustuvorligida singdirish bo‘yicha takliflar “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 -yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i, 314-197-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, ona tili o‘qitishning samaradorligi va ta’sirchanligi oshdi va talabalarning lingvistik ko‘nikmalarini intensiv oshishiga xizmat qilgan; talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanishning metodik modeli matnni anglashning deduktiv-nomologik, intensional, sababiy-deterministik omillari impulsiga asoslangan didaktik birliklarni talabalarning nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini integrativ rivojlantiruvchi muhitda individullikda qo‘llashga oid takliflari T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpoq filialida bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadiryatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpoq filialining 2023 yil 25 apreldagi 06/12-1667-son ma’lumotnomasi). Natijada talaba va o‘quvchilarning matn bilan ishlash jarayonida tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini tizimli rivojlantirish usullarining keng joriylanishiga erishilgan; talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanishning lingvodidaktik texnologiyalari talabalarni obrazli tushunishdan mantiqiy fikrlashga motivatsiyalovchi dialoglarni qulay

kommunikatsiya jarayonida o‘zaro tahlil munosabatlarida transformatsiyalashga oid takliflaridan “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” nomli darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i, 314-196 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talaba va o‘quvchilarda ijodiy faoliyat oshdi, kreativlik namoyon bo‘lgan;

germenevtik yondashuvdan foydalanish asosida talabalarda tinglab tushunish, matnni anglash qobiliyatlarining rivojlanganligini baholash mezonlari matn g‘oyasini ajratish va semantik jozibasini talqin etishga o‘rgatuvchi lingvistik topshiriqlarni reflektiv kommunikatsiya muhitida differensial yo‘nalganlikda qo‘llashga doir tavsiyalaridan “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 -yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i, 314-197-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarning matnni leksik jihatdan to‘g‘ri anglash va asl mohiyatiga asosan talqin qilishga o‘rgatish jarayoni metodik ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, shundan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, shundan 13 tasi respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, 252 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti shakllantirilgan, ishning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati hamda tadqiqot natijalarining joriylanishi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning “Ona tili ta’limini germenevtik yondashuv asosida o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida ona tili ta’limida matnni talqin qilish, unga germenevtik yondashish didaktik va metodik muammo sifatida o‘rganilgan, xususan, ona tili o‘qitishda metodik stereotiplarga asoslangan yondashuvlartsh zamonaviy tamoyillarga, milliy qadriyatlarga, ilg‘or jahon tajribasiga asoslanpft o‘qitish paradigmalariga transformatsiyalash maqsadga muvofiq ekanligi ko‘rsatib berilgan. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ona tili ta’limi sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlarning o‘rni va didaktik imkoniyatlari kattadir. Tilga o‘rgatish amaliyotining bosh omili sifatida matn bilan ishlashga o‘rgatishning metodik tizimini takomillashtirish orqali yoshlarning nutqiy malakalarini rivojlantirish, ularda kommunikatsiya muhitiga mos usul va shakllarda axborot almashish ko‘nikmalarini intensiv shakllantirish dolzarb masala sanalmoqda. Bugungi kunda axborot almashish shakllaridan foydalanish imkoniyati kengaygan

paytda bo'lajak talabalarning matnni tinglab tushunish, atrofdagilarga leksik jozibador tarzda malumotni yetkazish ko'nikmalari kasbiy faoliyat uchun etarli darajada shakllanmagani kuzatilmoqda. Tadqiqot doirasida olib borilgan dastlabki kuzatishlar natijasida keltirilgan muammolarning sabablari aniqlandi: 1) oliy ta'lim tizimida ona tilini o'qitishga qo'yiluvchi lingvodidaktik talablar tarkibida matnni anglash va talqin qilish bo'yicha yaxlit minimal talablar belgilab berilmaganligi; 2) yoshlar o'rtasida ona tilida savodli yozuv va jozibador nutqqa bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning targ'ib etilmayotganligi va oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda yozma savodxonlikni baholashdagi muammolarning mavjudligi; 3) oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida jonli muloqot va mushohadaga oid bilimlarni aniqlash imkonining yo'qligi; 4) professor-o'qituvchilarning faoliyatida metodik bir xillikning ustuvorligi; 5) filologik ta'lim yo'nalishida germenevtik yondashuvning leksik, didaktik imkoniyatlaridan foydalanilmayotganligi. Germenevtika talqin qilish san'ati, matnlarni tushunish nazariyasi sifatida o'qituvchilik faoliyatida muhim o'rin tutadi. Matnni tushunishga va uni nutqiy muhitga mos tarzda talqin etishga tayyor o'qituvchining faoliyati samarali tashkil etiladi. Chunki o'quv jarayonida jonli muloqot o'zining emotsional ta'sirga egaligi va malumotlarning o'zlashtirilishida zarur shartlardandir. Shuning uchun matn ustida ishlashning germenevtik yondashuvlarga asoslangan metodlari, ish turlaridan oliy ta'limda foydalanish orqali talabalarda matn bilan mustaqil ishlash, mantiqiy bayon etish, asosiy g'oya atrofida mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Germenevtikaning ildizlari qadim G'arb va Sharq madaniyatiga borib taqaladi. XIX asrga kelib alohida fan sohasi sifatida shakllangan. Mazkur nazariya nemis faylasuflari F.Shleyermaxer va V.Dilteylar faoliyati bilan bog'liq. Ta'limotning keyingi rivojida M.Xaydegger, G.Gadamer. P.Rikyor, M.Baxtin singari olimlarning xizmati katta bo'ldi. Germenevtikaning markazida tushunish masalasi turadi. Jumladan, F.Shleyermaxer germenevtikani, umuman, yozma manbalarni "tushunish san'ati haqidagi ta'limot", deb biladi. Unga ko'ra har qanday yozma manba (matn) ikkiyoqlama tavsifga ega: bir tomondan, u til tizimiga nisbatan qism, ikkinchi tomondan, muayyan bir individning ijod mahsulidir. Shuning uchun germenevtika oldida bir-biriga bog'liq ikkita vazifa turadi: 1) matndagi lisoniy ifodani muayyan til tizimining uzviy qismi sifatida o'rganish ("grammatik" talqin), ikkinchisi - uning ortida turgan betakror subyektni anglash ("psixologik" talqin).

V.Diltey o'zining "hayot falsafasi"da Gadamerga bilish nazariyasining xususiy tomoni emas, balki gumanitar fanlarning asosi sifatida qaradi. Zero, unga ko'ra, tushunish hayot atalmish butunlikni adekvat ifodalashning yagona vositasi bo'lib, u tufayli hayotni idrok etish mumkinligini isbotladi. Gadamerning faylasufga aylanishi M.Xaydegger nomi bilan bog'liq bo'lib, u "tushunish"ni bilish emas, mavjudlik usuli deb qaradi. M.E.Axmedovanning ta'kidlashicha, har qanday individning ijod mahsuli hayotni obyektivlashtirishdan boshqa narsa emas. Insonning borliqqa munosabati uning bilishi, qanday muhitda, sharoitda yashashi, ishlashi kabi omillarga bog'liq ekan, demak, oliy ta'limda ham matnni tushunish, anglash har bir insonning o'ziga xos tarzda talqin etilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirishning didaktik ta'minoti takomillashtirilmoqda. Bunda o'zbek tili ta'limining amaliy jihatini kuchaytirishga

qaratilgan ta'limiy ishlarga ustuvorlik berilmoqda. Zero, "ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish" vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifani sifatli amalga oshirish uchun matnni talqin va tahlil qilish, uni sharhlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham germenevtika masalasi o'zbek olimlari tomonidan ham keng o'rganila boshlandi. Bir qancha olimlar tomonidan germenevtik ta'limotning ayrim masalalari o'rganildi. Jumladan, adabiyotshunos olimlar Bahodir Karim, M.Tojiboyev, A.Erkinovlar adabiyot ilmidagi germenevtikani o'rganish bo'lsa, I.Rahimov, A.O'tamurodov, N.Shermuhamedova, Q.Nazarovlar tomonidan ham germenevtik ta'limotning ayrim masalalari o'rganildi. Bahodir Karim adabiyotshunos sifatida germenevtikani faqat badiiy ijod asarini o'rganish vositasi, deb hisoblaydi. U "Sharq germenevtikasi ta'limoti" xususida ham fikr bildiradi va uni G'arb germenevtikasining rivojlanish yo'lini bosib o'tmaganligini ta'kidlaydi. N.Shermuhamedova tushunish va tushuntirishning germenevtik asoslarini falsafiy-metodologik jihatdan tahlil etadi va tushunishning muayyan hodisa ma'nosini anglashdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Shuningdek, M.Abdullayeva, Sh.Jabborov, G.Navro'zova, G.Yunusovalarning ilmiy ishlarida, maqolalarida ham germenevtikaning ilmiy bilishdagi ahamiyati hamda tarixiy negizlari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

O'zbek tilshunosligida matn va matn nazariyasi haqida ilk bor akademik G'.Abdurahmonov o'z qarashlarini bayon etgan bo'lsa, so'ng A.G'ulomov, M.Asqarovalar tomonidan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida matn birlik sifatida e'tirof etiladi. Keyinchalik I.Rasulov, M.To'qsonov, M.Mukarramov, A.Mamajonovlar matnning turli jihatlari bo'yicha tadqiqot olib bordilar. Y.Desheriyev tilning funksiyalarini quyidagilarga ajratadi: kommunikativ, ijtimoiy, ekspressiv, estetik, gnoseologik. R.Yakobson esa oltita funksiyani ajratadi: emotiv, kognyutiv, poetik, metatil, fatik (muloqot uchun), referentiv (voqelik uchun). Sanab o'tilgan funktsiyalarning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldirishi asosan til o'rganish va o'rgatishning matn bilan ishlashga asoslanishi bilan dalolatlanadi. Har qaysi funktsiya doirasida olib boriladigan metodik ishlarning negizini so'zni tushunish, talqin qilish va axborot sifatida uzatish jarayonlari tashkil etadi. Matn bilan ishlashda talabalardan ijodkorlik talab etiladi. Xususan, matnni talqin qilishda og'zaki va yozma bayon hamda bu jarayonda noverbal nutqiy vositalardan foydalanish amalga oshiriladi. Demak ona tilida savodxonlik matnni talqin etishda muhim omil sanaladi. Bu jihatdan olganda ham germenevtika o'zining nutqiy muloqot uchun zarur ta'limot ekanligini namoyon etadi. Eng muhimi matn bilan ishlashda talabalarning ijodkorligi oshadi. Ular eshituvchilarning tushunishiga qarab, shaxsiy talqinini jozibadorlashtiradi. Turli emotsional leksik bezaklar bilan boyitiladi. Matn bilan ishlashda germenevtik yondashishning badiiy-estetik yaxlitlik, xissiy anglash tamoyillari qo'llaniladi. Mazkur tamoyillar matn tahlilini leksik vizuallashtirishda ham alohida o'rin tutadi.

XX asrning dastlabki yillaridan hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar orasida Sh.Yuldashevaning "Davlat tili ta'limida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari", T.Ziyodovanning "Ona tili ta'limi jarayonida

o'quvchilarning so'z boyligini oshirish" kabi tadqiqotlari o'zbek tilida o'quvchi va talabalarning nutqini o'stirish masalalariga bag'ishlangan.

Biz matni hermenevtik jihatdan o'rganishda model doirasida ta'limotlar qo'llanilishini aniqladik. Matn bo'yicha berilgan ta'riflar tahlil etilganda, u nutqiy faoliyat jarayoni mahsuli bo'lib, mazmuniy bog'liqlik, tugallanganlik, mantiqiy ixchamlik, til g'oyalari va norma asosida yondashuv, ma'lum elementlarning birikuvidan tarkib topishi, kommunikativ vazifa bajarish, g'oya va pragmatik ma'no ifodalash, lug'aviy birliklarning ma'lum grammatik qonunlar asosida birlashishidan iborat ekanligi ma'lum. Shaxs yoki shaxslar tomonidan yaratilishi, inson tafakkuri mahsuli bo'lib, murakkab psixo-fiziologik jarayon natijasida hosil bo'lishi va o'z adresantiga egaligi bilan xarakterlanadi.

1- jadval.

Germenevtik ta'limotlar maqsadi va natijasi

Ta'limotlar	Maqsad	Natija
Germenevtik	Ijtimoiy-madaniy lakunalar, refleksiylar semantikasini nutqda ochib berish orqali tushunish	Muayyan matnlarda ijtimoiy-madaniy lakunalarning ma'no-mazmunini tushunish ko'nikmalari shakllanadi va refleksiylar analitik faoliyatni amalga oshirish va bartaraf etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.
Nutq jarayonida tovush belgilari-grafik kodlariga e'tibor qaratish	Fikrni og'zaki bayon etishda nutq mahsuli-tovush kodi belgilari orqali til birliklarining ifodalanishi. Ularning adabiy til qoidalariga, me'yorlariga javob berishini anglash.	Matni leksik-semantik jihatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishga erishiladi.
Matni tushunishda nutqning to'g'ri ifoda etilishi	Talabalar ongida matni to'g'ri anglash uchun, asosan, ikki me'yorga — urg'u va grammatik me'yorga qat'iy amal qilish.	Dunyoni anglashda kognitivlik rivojlanadi.
Kommunikativ hamda kreativlik	Nutq faoliyatining turli ko'rinishlarida ijtimoiy-madaniy birliklardan foydalanish	Grammatik me'yorlarga amal qilishga o'rgatiladi va nutq madaniyati shakllanadi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, nutqiy muloqotning sifati va mohiyatan hayotiyiligini ta'minlashda turli ta'limotlar orasida hermenevtika ham o'zining maqsadi, vazifalari hamda kutiladigan natijalariga egadir. Matn asosida avlodlar o'rtasida qadriyatlar barqarorlashadi, kelajak avlod tarixiy ma'lumotlar bilan tanishadi. Matn avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy ko'prikdir. Tilshunos olim A.Hojiyev ta'kidlaganidek, "Matn nutq ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Yagona kommunikativ vazifa bajaruvchi gap va gaplar yig'indisi matn deyiladi". Darhaqiqat, muloqot orqali jamiyatda turli munosabatlar manzilli amalga oshiriladi. Ularning xissiy anglanishiga esa hermenevtika asosida erishish imkoniyati kengdir. Bundan tashqari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy nutqini rivojlantirishda ham mazkur yondashuvdan foydalanish o'zining kompleks (psixologik, ijtimoiy, lingvistik, reflektiv, kommunikativ)imkoniyatlariga egadir. Shuning uchun tadqiqot

doirasida hermenevtik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Dissertatsiyaning "Ona tili ta'limida hermenevtik ta'limotning o'rni, o'ziga xosligi hamda funksional xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi bobida ona tili o'qitishda hermenevtikaning ilohiy, tarixiy, madaniy matnlar bilan ishlash tavsiflari keltirilgan. Ma'lumki, XX asrning 1970-yillariga kelib, o'zbek tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlovchi, tahlillarni tildan nutqqa qarab belgilovchi tahlil usullari falsafaning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab va alohidalik, hodisaviylik, voqelik, oqibat kategoriyalariga tayanuvchi substansial tilshunoslik shakllandi. Shuningdek, XX asrning 1990-yillarida o'zbek tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlovchi jihatlar hamda tahlillar nutqdan tilga qarab belgilanadigan tavsifiy tilshunoslik ham rivojlandi. XXI asrning ikkinchi o'n yilligida o'zbek tilshunosligi uchun eng yangi til va nutqni egasidan ajratmay o'rganadigan, tahlillari til-shaxs-nutq munosabatiga asoslangan antropotsentrik tilshunoslik ham jadal rivojlandi. Aytib o'tilgan bu yo'nalishlar o'zining metod va tahlil usullariga ega bo'lib, ularda hermenevtik yondashuv mavjudligini ko'ramiz. Metodist olim D.Yo'ldosheva tahlil qilishicha, ona tili o'qitishda bir qancha kamchiliklarga yo'l qo'yilgan: "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11- sinflari uchun mo'ljallangan amaldagi "Ona tili" darsliklarida – (o'quvchi yodlashi va esda saqlashi nazarda tutilgan) bir yarim mingga yaqin grammatik talqinlarda – (bizning statistikamizga ko'ra) 55-60 % an'anaviy, 25-30 % substansial, 10-18 % tavsifiy tilshunoslikning bir-birini inkor etuvchi ma'lumotlari berilgan". Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun bilim va malakalarni shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaviy ta'limni o'tilgan bu yo'nalishlar o'zining metod va tahlil usullariga ega bo'lib, ularda hermenevtik yondashuv mavjudligini ko'ramiz. Metodist olim D.Yo'ldosheva tahlil qilishicha, ona tili o'qitishda bir qancha kamchiliklarga yo'l qo'yilgan: "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11- sinflari uchun mo'ljallangan amaldagi "Ona tili" darsliklarida – (o'quvchi yodlashi va esda saqlashi nazarda tutilgan) bir yarim mingga yaqin grammatik talqinlarda – (bizning statistikamizga ko'ra) 55-60 % an'anaviy, 25-30 % substansial, 10-18 % tavsifiy tilshunoslikning bir-birini inkor etuvchi ma'lumotlari berilgan". Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun bilim va malakalarni shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaviy ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yish, hermenevtik yondashuvni amaliyotga tatbiq etish talab etiladi. Biz tadqiqot ishimizda falsafa, tilshunoslik hamda ona tili o'qitish metodikasining o'zaro kesishishi kabi muammolarga alohida e'tibor qaratdik. Unda falsafiy yondashuv va munosabatlar gumanitar hamda pedagogikaga oid fanlar muammolari doirasida faylasuf va filolog hamda metodist o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Bunda hermenevtik yondashuvning ahamiyati va samarasi juda katta bo'ladi. Biz hermenevtika insonparvarlik hodisalarini tushunish va talqin qilish doktrinasi (lat: ta'lim berish, ko'rsatma) sifatida qadimgi yunon mutafakkirlari davrida o'z rivojini boshlagani, hozirgi vaqtda hermenevtika insonning ma'naviy tajribasini anglash shakllaridan biri, milliy hamda odamiylik ma'nolari va qadriyatlarini yaratish va tushunish fani sifatida namoyon bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni asoslab berdik.

Biz tadqiqot ishimizda falsafa, tilshunoslik hamda ona tili o'qitish metodikasining o'zaro kesishishi kabi muammolarga alohida e'tibor qaratdik. Unda falsafiy yondashuv va munosabatlar gumanitar hamda pedagogikaga oid fanlar muammolari doirasida faylasuf va filolog hamda metodist o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Bunda germenevtik yondashuvning ahamiyati va samarasi juda katta bo'ladi. Biz germenevtika insonparvarlik hodisalarini tushunish va talqin qilish doktrinasi (lat: ta'lim berish, ko'rsatma) sifatida qadimgi yunon mutafakkirlari davrida o'z rivojini boshlagani, hozirgi vaqtda germenevtika insonning ma'naviy tajribasini anglash shakllaridan biri, milliy hamda odamiylik ma'nolari va qadriyatlarini yaratish va tushunish fani sifatida namoyon bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil etishga harakat qildik. Bundan tashqari o'quv jarayonida talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanishning lingvodiktik texnologiyalarini qiyosiy o'rgandik. Talabalarni obrazli tushunishdan mantiqiy fikrlashga motivatsiyalovchi dialoglarni qulay kommunikatsiya jarayonida o'zaro tahlil munosabatlarida transformatsiyalashga erishdik. Bunda ona tili fanini o'qitishning xususiyatlariga asoslanildi. Chunki ona tili fanini o'qitishda germenevtik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Masalan, she'riy matnlar bilan ishlaganda matndagi har bir jumlaning, so'zni alohida his etishga o'rgatish muhim hisoblanadi. Ma'lumki, she'riyatda borliqni anglash, uni badiiy talqin etish o'zining chuqur ildizlariga ega. Lirik qahramonning ruhiyat manzaralarini aks ettiruvchi turli detal she'riy asarda falsafiy xulosalar chiqarishga vosita sifatida alohida ahamiyatga ega. Borliq tasviri berilgan she'rlarni tahlil qilar ekanmiz, unda asosan tasvir va narsa-hodisalarning obrazi berilib, uning ramziy ma'nolariga urg'u berib, obrazga singdirilgan ramziy-timsoliy mazmun ifoda etiladi va uning o'ziga xosligi haqida so'z boradi.

Insonni tushunishda, anglashda va anglatishda Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridagi Anvar hamda Ra'no obrazlari misol bo'la oladi. Anvarning bolaligidan bosiq, mulohazali, aqlli, adolatli, odob-axloqli, samimiy, boshqalarni hurmat qiluvchi, sinq, kamtar ekanligini matn orqali tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki asardagi holatni, obrazni yaxshi tushuna olgan talaba nutqini to'g'ri ifoda etish bilan birga matndagi holatni to'g'ri tushuna oladi ham. Yozuvchi asar davomida yuqoridagi xislat-fazilatlarini uzviylik asosida tasvirlab boradi. Ma'lumki, DTS va namunaviy dastur talabiga ko'ra har bir o'quvchi, talaba matnni tushuna olishi talab etiladi. Buning uchun adabiyot darsligida berilgan matndan foydalanamiz. Masalan: *Anvar ularning so'ziga qarshi majhul bir vaziyat saqlag'an holda bosh qimirlatib sufaga qaytdi.*

Mohlar oyimning haligi so'zi bilan masalaga tushundi va yatimona boshini quyi soldi.

Anvar uyalib bag'ridag'ini bo'shatib yubordi. Xotinlar kulishdilar.

Axir bir kun uylanadi, bamisoli sen bo'lsang erga tegasan... Axir uy kerak-da, qizim. Bu so'zdan Anvar qizarib ketdi.

Ra'no Anvarning maqsadig'a tushundi, shekilli, bir necha vaqt jim qoldi va qarshisidag'i yigitning o'ychan yuziga bir-ikki qarab oldi.

– *Domlaniing soʻz daromadiga qaragʻanda, sizni oʻziga kuyav qilish fikri borgʻa oʻxshaydi. Sizning rizoligʻingiz bilanmi, yoʻqmi, bunisini bilalmadim...*

Anvar qizarindi. Javob berish oʻrnigʻa “natija?” degandek qilib unga savol nazari bilan qaradi.

Romanda ifoda etilgan Anvarga xos xususiyatlar insonning shakllanishida asosiy omil sifatida ahamiyat kasb etadi. Personaj haqidagi axborot adresatning unga munosabatini oʻzgartiradi, kitobxonning personaj haqidagi qarashlariga aniqlik kiritadi. Personaj ham oʻzi haqidagi fikrlar asosida borliqqa va boshqalarga munosabat bildiradi. “Mehrobdan chayon” asarini oʻqir ekanmiz, tilshunoslikka xos boʻlgan terminlar yaqqol koʻzga tashlanadi. Muloqot, nutq, sukut, jimlik kabi tushunchalar berilganki, bunday tushunchalar talaba ongiga ijobiy taʼsir etadi. Anvarning muloqot jarayonida sukut saqlashi, jimlik bilan javob berishi, nigohlari orqali fikr ifodalashi va boshqa ayrim harakatlari muallifning personaj xarakterini yaratishdagi oqilona usuli sanaladi. Asarda germenevtik sharoit yaratish uchun soʻzning motivlashuvi eng muhim poetik xususiyat hisoblanadi. Motivlashuv gʻoya talabi bilan soʻzning shaklida ham oʻz aksini topishi mumkin. Mumtoz adabiyotda va hozirgi zamon sheʼriyatining aruz vaznlaridagi janrlarida “koʻz” oʻrnida “chashm”, “koʻz yoshi” oʻrnida “ashk”, “soch” oʻrnida “zulf” va boshqalarning qoʻllanishi ham poetik talab bilan badiiy motivlashish natijasidirki, ular ham germenevtik transformatsiya uchun oʻziga xos gʻoya tashishga xizmat qiladi. Soʻzlardagi motivlashuv uning texnik va jonli maʼnolari oʻrtasida ham paydo boʻladi, matn mazmunidan kelib chiqqan holda har bir soʻz yangi, original maʼno, original shakl kasb etadi; soʻzning shakl paradigmalari ham maʼnoning kengayishiga yordam beradi – soʻz shakli doimo motivlashish uchun manba boʻla oladi. Psixologlar taʼkidlashicha, “Motiv – maʼlum ehtiyojlarni qondirish bilan bogʻliq faoliyatga undovchi sabab”dir. Demak, har bir talabaga matnni tushuntirishda, uni tushuna olishida ana shu ehtiyojni hisobga olish muhim hisoblanadi. Jumladan, *yoshum oʻtdi sani deb* iborasidagi “*seni deb meni yoshim oʻtdi*” deganga, nisbatan tamomila yangi maʼno, emotsionallik bermoqda.

Ona tili taʼlimi masalasiga anʼanadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha koʻz bilan qarashimiz lozim. Shu oʻrinda biz, eng avvalo, ona tili taʼlimi va uning natijasi borasida ikki jihatni farqlab olishimiz zarur. Bular–

1) ona tili taʼlimi jarayonida tahsil oluvchiga tilning beqiyos imkoniyatlaridan foydalanish, yaʼni tilning kommunikativ-amaliy qiymatini yuksak darajada namoyon eta olish koʻnikmalarini singdirish;

2) ona tili taʼlimi jarayonida tahsil oluvchiga tilshunoslik asoslarini muntazam oʻrgatib borish, tom maʼnoda, jamiyat uchun tilshunoslikning qonun-qoidalarini biladigan shaxsni tarbiyalash.

Bugun maktab partasida oʻtirgan oʻquvchi uchun kelajakda qay biri muhim? Til imkoniyatlaridan foydalana oladigan, soʻzning mantigʻiga va qadriga yeta oladigan shaxs sifatida shakllanishimi yoki maktabni bitirgunicha qariyb 1.500 ta qoidani yod olib, oliy taʼlimga oʻqishga kirish uchun ulardan yengil-yelpi (baʼzan, omadiga tayanib) foydalanib qoladigan kishi boʻlib yetishishmi?

Didaktik tahlil falsafiy, psixologik va tilshunoslik yoʻnalishlaridan farq qilib, unda matnni oʻqiganda aks etgan dunyoqarashi, olamni idrok etish tarzi, dunyo hodisalarini tushunishi va tushuntira olishi kabilarga eʼtibor qaratiladi.


Har bir matnga germenevtik jihatdan yondashar ekanmiz, filologik tahlil va uning oʻziga xos jihatlariga eʼtibor berishimiz lozim boʻladi. Filologik tahlildagi har bir gapning qurilishiga ahamiyat berish va uning oʻziga xosligini anglashga yoʻnaltirilgan psixolingvistik tahlil boʻlishi zarur.

Ona tili oʻqitish tizimida bilish, tushunish, oʻqish, yozish sanʼatini matnlar orqali tushunish bu asosan tanqidiy fikrlash asosida amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash (ingl. critical thinking) – narsa va hodisalarni oqilona xulosalar chiqarish bilan tahlil qilishda foydalaniladigan va asoslangan baholar, talqinlar berishga, shuningdek, olingan natijalarni vaziyatlar va muammolarda qoʻllash imkonini beradigan mulohazalar tizimi. Umumiy maʼnoda tanqidiy fikrlash deganda tanqiddan oldingi fikrlashdan koʻra yuqoriroq darajada fikrlash koʻzda tutiladi.

Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanishning metodik modelida matnni anglashning deduktiv-nomologik, intensional, sababiy-deterministik omillari aks etgan boʻlib, ularning impulsiga asoslangan didaktik birliklar(maqсад, vazifa, usul, vosita va baholash)ni qoʻllashda individual yoʻnalganlikka eʼtibor qaratildi. Bunda talabalarning nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini integrativ rivojlantiruvchi muhitni yaratishning optimal yoʻllari tanlandi. Shu orqali talabalarda tushunish va tushuntirish sanʼatiga oid qiziqish va bu boʻyicha kasbiy koʻnikmalarni egallashga intilishning kuchayishiga erishildi.

Tanqidiy fikrlash ham, germenevtik yondashuv ham insonga mantiqiy xulosa qilish, axborotni qayta ishlash kabi operatsiyalarni bajarish imkonini beradi. Germenevtik jihat shu qadar keng tarqalganki, u muqarrar ravishda tabiat va sanʼatdagi goʻzallik tajribasini ham oʻz ichiga oladi. Inson uchta jihatda oʻzini ijtimoiy mavjudot sifatida namoyon etadi: til- insonning fikrlash faoliyatini amalga oshiruvchi muhim shakl; ong-nafaqat insonning mehnat faoliyati, balki odamlarning oʻzaro aloqasi va muloqotining universal vositasi; mehnat- tilni rivojlantiruvchi va boyituvchi omil. Badiiy matn inson tomonidan borliqni oʻziga xos tarzda bilish va idrok qilish boʻlib, tashqi dunyo tomonidan qabul qilingan barcha axborotlar ijodkorning dunyoqarashi asosida rivojlanadi. Aynan shu nuqtai nazarga tayangan holda talabalarda tinglab tushunish, matnni anglash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlar rejalashtirildi. Bunda mazkur koʻnikmalarning talabalarda shakllanganligini baholash mezonlariga moʻljallandi. Talabalarning nutqiy faoliyatini germenevtik yondashuvdan foydalangan holda tashkil etishda matn gʻoyasini ajratish va semantik jozibasini talqin etishga oʻrgatuvchi lingvistik topshiriqlardan foydalanildi. Bu topshiriqlar reflektiv kommunikatsiya muhitida differensial yoʻnalganlikda taqdim etildi. Tinglash, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayonni didaktik jihatdan taʼminlashda matnni talqin etishning tushunish, hayotiy tahlil va xulosa bosqichlariga mos kreativ mushohadaning turli modellari tayyorlandi. Ushbu modellarning estetik-vizual integratsiyada qoʻllanilishi amaliyotda ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi.

Tushunish va tushuntirish haqida soʻz borar ekan, hermenevtikaga oid asosiy atamalar izohiga toʻxtalish zarur boʻladi. Tushunish - bu anglash hodisasi boʻlib, oʻzida integral vaziyatni ifodalaydi, aniq ruhiy holat va kechinmalar bilan oʻtadi hamda shu asosda ongli qaror qabul qilishga olib keladigan muayyan hodisani baholash, mohiyatini oʻzlashtirish demakdir. Tushunish –bir ong tomonidan uzatiladigan, ikkinchi ong esa uni tashqi ifodalar orqali qabul qilib oladigan belgilar maʼnosini tushunib yetish jarayoni. Tushunish bilan bir qatorda, bilishda tushuntirish ham mavjud boʻladi. Uning bosh maqsadi – oʻrganilayotgan predmet, narsa-hodisaning mohiyatini, rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Buning uchun hermenevtik bilimni oʻqituvchi oʻzida mujassam qilmogʻi maqsadga muvofiq boʻladi. Bunda amaliyotga biz tomondan muayyan metodik harakatlar, tamoyillar, texnologiyalar, baholash mezonlari hamda koʻrsatkichlar bilan takomillashtirilgan model taklif etildi (1-rasm).



1-rasm “Ona tili ta’limida matn bilan ishlashda hermenevtik ta’limotning o’rni, o’ziga xosligi hamda funksional xususiyatlarini rivojlantirish” modeli

Dissertatsiyaning “Germenevtik yondashuv asosida ona tili o‘qitish texnologiyasini takomillashtirish” deb nomlangan uchinchi bobida talabaning ongli qaror qabul qilishida tushunish va tushuntirishning o‘rni metodik asoslab berilgan. O‘zbek tili o‘qitish metodikasida matn yaratish, matn ustida ishlash va uning mazmun mohiyatini anglash alohida ahamiyatga ega. Biz ushbu paragrafda matnni tushunish va uni tushuntira olish jihatlari haqida fikr yuritamiz. Hozirgi adabiyotlarda tushunish turlari, tiplari va darajalarining har xil tasniflari mavjud. Masalan, G.I. Ruzavin tushunishning uch asosiy turini farqlaydi: matnlarni, badiiy adabiyot va san’at asarlarini, shuningdek, odamlarning turli vaziyatlardagi qilmishlari va harakatlarini talqin qilish bilan bog‘liq tushunish. Bu yerda ma’noni intuitiv tushunishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Bu tushunishning birinchi darajasi. Tushunishning ikkinchi darajasi tadqiqotning boshqa, xususan: mantiqiy metodologik, aksiologik, madaniy vosita va metodlarini jalb qilishni taqozo etadi. Dialogda til vositasida aloqa qilish jarayonida yuzaga keladigan tushunish. Tushunish yo tushunmaslik natijasi bu yerda suhbatdoshlar o‘z so‘zlariga qanday ma’no yuklashiga bog‘liq. Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish bilan bog‘liq tushunish.

Bir yigitlar tug‘ilsinki ... osmonning oxiri

Osmonning oxiri qayerda, dedim bir donishga. U miq etmadi. Menga juda yoqdi bu javob.

Osmonning oxiri yo‘q axir! Irmoqning oxiri daryo. Daryoning oxiri dengiz.


Osmonning esa oxiri yo‘q. Yo‘l chetida yumalab yotgan toshni tepdim. Toshdan sado chiqmadi. Xudoga soldim, degani bu. Olma shoxiga osilib devorga chiqdim. To‘kilgan meva qumursqalarga ermak bo‘ldi. To‘kilgan devor tuprog‘i esa gunohimga gunoh bo‘lib qo‘shildi. Tunda paxsakash chol tushimga kirdi. Mening shirin uyqum buzildi. Xuddi eski devor buzilganiday...

Ushbu jumalalarda tabiat haqida fikr bildiriladi. Chunki bu insonning dunyoga munosabati bilan belgilangan, inson faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan makon to‘g‘risida fikr ifoda etilmoqda. U alohida insoniy ma’no kasb etadi va biosfera, sayyora va koinot darajasidan bir vaqtda o‘rin oladi, shu bilan birga, inson yaratgan infratuzilma, o‘zlashtirilgan hududlar, foydalanilayotgan suv va fazo okeanlari, jamuljam holda inson yashaydigan makonga aylangan koinot kengliklari ko‘rinishida ulardan ajralib turadi. Ma’lumki, talaba kompetentligini rivojlantirish bugungi kunning asosiy talablaridan hisoblanadi. Chunki umumiy kompetensiyalar va kasbiy kompetensiyalar ona tili ta’limi mazmunini rivojlantirishga xizmat qiladigan asosiy kategoriyalar hisoblanadi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim-tarbiya sohasiga pedagog va psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida fanga kirib kelgan bo‘lib, pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik noan’anaviy vaziyatlar, o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Tushunish - bu boshqa bir insonning ma’naviy-ruhiy olamini anglash, his etish, uning maqsad, g‘oya va niyatlarini o‘qib olish demakdir. Chunonchi, badiiy asar sohibi har doim ham o‘z qalbida kechayotgan tuyg‘ularni, inson va borliq xususidagi hissiy qarashlarini qog‘ozda to‘liq ifoda eta olmaydi. Shu sabab muallifning

ma'naviy dunyosi, badiiy olami matnda ifodalangan mazmunga nisbatan ancha keng bo'ladi.



2-rasm Germenevtik kompetentlikning turlari va xususiyatlari

Ona tili ta'lim traektoriyasining germenevtik ta'limotini rivojlantirish imkoniyatining yaratilishi akademik mobillik, baholarning to'planib borilishi, o'qituvchi, talabalarning fanga qiziqishiga bog'liq. Aniq belgilangan baholash tizimini joriy etishda metodik, didaktik, pedagogik-metodik germenevtik kompetentlikni quyidagicha turlarga ajratilganligi muhim ahamiyatga ega. Bu borada tilshunos olim B.Mengliyev fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz: "Hammamiz maktabda fizika, kimyo, matematika, biologiya predmetlarini o'qiganmiz. Uni qoyillatib, yod olib baho olganmiz. Ammo ko'p hollarda oddiygina elektr chirog'i patronini o'rnatishni ham, daraxtni payvand qilishni ham, yulduzlarga qarab vaqtni aniqlashni ham, jarohatga qanday malham qo'yishni ham, biror narsaning hajmini hisoblashni ham eplay olmaymiz. Nega oddiygina isitish tizimidagi suvning aylanma harakatini ham tushunmaymiz. Nega? Chunki bizning ona tili ta'limimiz hayotdan uzilib qolgan. Hamma ham fizik, matematik, biolog bo'lavermaydi-ku! Shuning uchun talabada hayotiy kompetensiya birinchi o'ringa chiqishi lozim edi. Albatta, talaba erkin va mustaqil fikrlash uchun, kreativ fikrlash uchun kompetensiyaviy ta'lim qog'ozlarda qolib ketmasligi zarur. Agar biz har bir matnning germenevtik tahlilini amalga oshirishni maqsad qilib olsak, talaba shaxsi rivojlanishi uchun omil yarata olamiz.

Talabalarda hermenevtik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi

Germenevtik kompetensiyalarning tarkibiy elementlari bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturi talablari asosida rivojlantirish, leksik, morfologik, so‘z vasalishi, uslubiy me‘vorlarga matn ustida ishlashda amal qilishni o‘rgatish

1-bosqichda ona tili ta‘limida talabalarning hermenevtik kompetensiyalarini o‘quv dasturi talablari asosida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlarni tizimli tarzda rejalashtirish;

2-bosqichda turli matnlar mutolaasi, tinglab tushunish, vositasida tanlab olingan badiiy asarni ifodali tarzda va rasmiy matnni diqqat bilan o‘qitish, o‘rganilgan ma‘lumotlarni og‘zaki ravishda gapirtirish, yozma shaklda matn turlarini yozdirish;

3-bosqichda tanlangan badiiy asarni o‘qishi va undagi fragmental bosqichni ketma-ket tarzda o‘stirish, tilning leksik birliklarining uslubiy xususiyatlarini amalda qo‘llash

4-bosqichda talabalarning hermenevtik kompetensiyalarining rivojlanishini darsdan tashqari mashg‘ulotlardagi (OTMda tashkil etilgan to‘garaklarda, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda, mushoira darslarida) ishtiroki bo‘yicha muntazam ish olib borish, ularni rag‘batlantirish.

Natijada matn tuzish va yozishda rioya qilingan lisoniy-orfografik qoidalarga rioya qilinganligini tekshirish, baholash, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar ustida ishlash usullari natijasida hermenevtik kompetensiyalar talabalarda takomillashtiriladi.

3 - rasm. “Ona tili” darsliklarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan hermenevtik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi

“Germenevtika - keng ma‘noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta‘limot, tor ma‘noda, filologiya, huquqshunoslik, ilohiyotshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan metod va qoidalar to‘plami” hisoblanadi. Bizningcha, hermenevtikaning qamrovi keng bo‘lib, u inson, xususan, talabaning borliqni alohida his qila olishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Hermenevtikaga berilgan ta‘rifga e‘tibor qarataylik: tarjima (boshqa tildagi ijod mahsulini va tajriba ma‘nosini o‘z tiliga o‘tkazish); rekonstruksiya (haqiqiy ma‘noni topish yoki ma‘no tug‘ilgandagi vaziyatni o‘rganish); dialog (subyektning matn bilan muloqotga kirishi va yangi ma‘noning yaratilishi) kabi turlari mavjud.

Germenevtik yondashuvning ta'lim amaliyotidagi qiyosiy tahlili

OTMda germenevtik yondashuv ana'anaviy ta'lim shaklida	OTMda germenevtik yondashuv noan'anaviy ta'lim shaklida
An'anaviy ta'lim shaklida germenevtika tizimi uchun tilshunoslik fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda qulay va amaliy ahamiyatga ega didaktik ta'lim metodlari asosida darsliklar yaratish va shu asosida dars mashg'ulotlarini olib borish; germenevtik yondashuvda og'zaki, ko'rgazmali, amaliy (seminar, laboratoriya va ekskursiya)	noan'anaviy ta'lim shaklida qulay va amaliy ahamiyatga ega didaktik-pedagogik maqsad asosida darsliklar yaratish va shu asosda dars mashg'ulotlari olib borish; germenevtik ta'limotda pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning farqlariga tavsif beriladi. Insert, FSMU, VENN, Klaster, BBB, T-sxema, 6x6x6 va hokazo.
oliy ta'limda germenevtik yondashuv uchun tilshunoslik fanlaridan matn topshiriqlari tuzishning metodik mexanizmini joriy etish	talabalarni mavzu doirasida har bir mavzuga oid matn 10 tadan ko'p bo'lgan murakkab matn tuzishga o'rgatish
OTMda ona tili ta'lim mazmuniga ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba asosida darsliklar mazmunida ona tili dars mashg'ulotlarida sinab ko'riladi va olingan xulosalar umumlashtiriladi	tezkor savol-javob interfaol o'yin metodi asosida olib boriladi.

Ona tili darslarida matnni o'rganish uchun tarixiy, grammatik, leksik - semantik tahlil kabi germenevtik usullar qo'llaniladi. Har bir matn ijtimoiy muhit, makon, zamonga nisbatan o'rganiladi. Leksik tahlilda matnda ishlatilgan so'zlar, ularning ma'nosi, ishlatilgan so'z turkumlari e'tiborga olinadi. Gap tarkibidagi so'z turkumlari yoki matnning lug'aviy tarkibidagi so'zlar, gap bo'laklarining to'g'ri ishlatilganligiga diqqat qilish lozim bo'ladi. Matn voqe bo'lishi uchun turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq: germenevtik yondashuv asosida matn mazmuniga oid innovatsion texnologiyalar, axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish; ona tili ta'limi jarayonida turli matnlar bilan ishlashda mavzuga oid video lavhalar (qiziqarli o'yin, ... kabi) dan foydalanish.

Matn bilan ishlar ekanmiz, matn bilan ishlovchining tushunchasi ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, "Sizningcha, baxt nima?" degan savolga hamma o'z tushunchasidan kelib chiqib, har xil javob beradi.

Dissertatsiyaning "**Takomillashtirilgan o'quv topshiriqlarining amaliyotda qo'llanilishi**" deb nomlangan to'rtinchi bobida tajriba-sinov ma'lum ma'noda o'z oldiga qo'ygan maqsadni va undan kelib chiquvchi vazifalarni uddaladi. Buni

quyidagi jadvallarda aniq ko‘rish mumkin. Tajriba-sinov ishlari obyekt sifatida tanlab olindi va OTM va o‘qituvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Sinov ishlariga tajriba maydonlari sifatida qabul qilingan OTM dan jami 1404 nafar respondent-tinglovchi jalb etildi.

3-jadval

Tajriba-sinov ishi uchun germenevtik yondashuv kompetensiyasini baholash mezonlari

Mezonlar	Germenevtik ta’limotidan foydalanish
Ta’limot. Maksimal ball – 5.	1) matnning boshida asosiy fikrni berish uchun matnni qanday tashkil qilishni biladi; 2) inshoni mantiqiy jihatdan to‘g‘ri yozishni biladi; 3) matnni semantik paragraflarga bo‘lishni biladi; 4) matnning asosiy qismidan mantiqiy ravishda kelib chiqadigan xulosa chiqarishni biladi; 5) matnda 300-500 so‘z mavjud.
Germenevtika. Maksimal ball – 5.	1) matnni mavzuga mos ravishda yozishni biladi; 2) mavzu bo‘yicha o‘z fikrini batafsil ifodalashni biladi; 3) fikrlarini tasdiqlash uchun misollar keltirishni biladi; 4) ona tilidan gaplarni so‘zma-so‘z tarjima qilishdan qochishni biladi; 5) apostrofli qisqartma so‘zlardan foydalanmagan.
Leksika. Maksimal ball – 5.	1) fe‘l va ko‘makchi so‘zlar birikmasini (Preporsonal and phrasal verbs) to‘g‘ri qo‘llay oladi; 2) o‘rganilgan lug‘atni matnda qo‘llashni biladi; 3) gapda iboralarni to‘g‘ri ishlatishni biladi; 4) sinonim va antonim so‘zlardan foydalanishni biladi; 5) so‘z yasash usullari haqida tushunchaga ega.
Grammatika. Maksimal ball – 5.	1) matn ma’nosini tushunishga to‘sqinlik qiluvchi qo‘pol grammatik xatolarga yo‘l qo‘ymaslikni biladi; 2) turli sintaktik vositalardan, murakkab gap tuzilmalaridan foydalanishni biladi; 3) asosiy so‘z tartibiga rioya qilgan holda gapni to‘g‘ri tuzishni biladi; 4) fe‘lning turli shakllaridan foydalanishni biladi; 5) payt ravishlarini qachon va qanday ishlatishni biladi.
Imlo, tinish belgilari. Maksimal ball – 5.	Tinish belgilaridan to‘g‘ri foydalanadi, matn ma’nosini buzuvchi imlo xatolariga yo‘l qo‘ymagan – 5 ball; matn ma’nosini tushunishga ta’sir qilmaydigan imlo va tinish belgilarida kichik xatoga yo‘l qo‘ygan – 4 ball; imlo va tinish belgilarida qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ygan, lekin, umuman, matnnihg ma’nosiga ta’sir qilmagan – 3 ball; Matnni ma’nosining tushunarsiz bo‘lishiga olib keladigan imlo va tinish belgilarida qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ygan – 2 yoki undan kam ball.

Mezonlarning har bir germenevtik ta’limotidan foydalanish uchun o‘qituvchi “+” yoki “–” qo‘yadi, natijada har bir mezon uchun baho belgilanadi (“imlo va tinish belgilari” mezoni o‘zining ta’riflangan tamoyillariga ega). So‘ngra matn uchun o‘rtacha ball barcha mezonlar bo‘yicha ballardan kelib chiqadi. Tajriba-sinov bosqichi mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ona tili matn ustida ishlash germenevtik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini amalga oshirishdan iborat.

Ushbu metodikani amalga oshirishning asosiy vositasi OTM 1-2-kurs talabalarining ona tili germenevtik ta'limotidan foydalanish texnologiyalari bo'yicha kompetensiyasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan to'rtinchi bobning ikkinchi paragrafi "Tajriba-sinov ishining sifat va miqdor natijalari" deb nomlanganligi bilan metodik jihatdan asosli deb hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi.

4-jadval

Talabalarining tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari bo'yicha respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi.

Tajriba maydonlari	Umumiy respondentlar soni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Andijon davlat universiteti	324	168	156
Farg'ona davlat universiteti	342	180	162
Qo'qon davlat pedagogika instituti	372	192	180
Shahrisabz davlat pedagogika instituti	366	180	186
Jami	1404	720	684

Yuqorida ta'kidlanganidek, talabalarining tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotidan foydalanish bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Talabalarining tinglab tushunish anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda Germenevtik ta'limotidan foydalanish texnologiyalari bo'yicha tajribadan avvalgi (T.a) va tajribadan so'ngidagi (T.s.) umumlashgan ma'lumotlarni keltiramiz (5-jadval).

5-jadval

Talabalarining tinglab tushunish anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotidan foydalanish darajasi

Me'yorlar	Tajriba guruhi (720 nafar respondent)						Nazorat guruhi (684 nafar respondent)					
	To'g'ri va to'liq bajarilgan		Qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan		To'g'ri va to'liq bajarilgan		Qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan	
	T.a	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
Matnlarni qidirib topa olish	180	346	212	265	328	109	172	192	207	210	305	282
Matn muammosiga yechim topa olish	178	347	210	264	332	109	173	190	205	212	306	282
Matn bilan mustaqil ishlay olish	176	345	214	267	330	108	171	194	209	214	304	276

Matnni tinglab tushunish	179	346	210	266	331	108	174	192	205	213	305	279
Ijodiy yondashish	178	347	214	268	328	105	175	193	207	212	302	279
Mantiqiyfikrlash	177	345	212	266	331	109	173	191	209	211	302	282
Umumiy o'rtacha	178	346	212	266	330	108	173	192	207	212	304	280

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so'nggida.

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tajriba sinflarida nazorat sinflariga nisbatan talabalarning tinglab tushunish anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotidan foydalanish mezonlarining barchasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Tajriba-sinov ishlarining aniqlovchi va yakunlovchi bosqichlarida o'tkazilgan nazorat so'rovnomalarining qiyosiy tahlillari biz olib borgan tajriba ishlarining natijaliligini hamda samaradorligini isbotladi. Buni biz talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotdan foydalanish bo'yicha tajriba va nazorat sinflaridagi rivojlanganlik indikatorlarining sifat va son jihatidan dinamik o'sganligida ko'ramiz.

Jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, sinov va nazorat guruhleri OTMLar kesimida taqqoslandi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotdan foydalanish bo'yicha tajriba va nazorat sinflaridagi ma'lumotlarning solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	To'g'ri va to'liq bajarilgan	Qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan	Xato bajarilgan	Jami
		AndDU	81	62	25
	FarDU	86	67	27	180
	Qo'qon DPI	92	72	28	192
	Shahrisabz DPI	87	65	28	180
	Jami	346	266	108	720
Nazorat guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	To'g'ri va to'liq bajarilgan	Qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan	Xato bajarilgan	Jami
		AndDU	44	49	63
	FarDU	43	51	68	162
	Qo'qon DPI	53	54	73	180
	Shahrisabz DPI	52	58	76	186
	Jami	192	212	280	684

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Bu jadvallar asosida talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotdan foydalanish bo'yicha yakuniy bosqich natijalari keltirilgan(7-jadval).


7-jadval

Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotdan foydalanish bo'yicha qiyosiy tahlil (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)		
		To'g'ri va to'liq bajarilgan	Qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan	Xato bajarilgan
Tajriba guruhi	720	346 48	266 37	108 15
Nazorat guruhi	684	192 28	212 31	280 41

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Student va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega.

Matematik-statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko'rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilab, baho ko'rsatkichlari bo'yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi. Bu yerda to'g'ri va to'liq bajarilgan ko'rsatkichni (yuqori) qisman to'g'ri va xato bilan bajarilgan ko'rsatkich (o'rtacha) bilan va xato bajarilgan ko'rsatkichni (past) belgilaymiz. Bu diagramma quyidagi ko'rinishni oldi.



4-rasm. Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish bo'yicha diagramma

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba-sinov ishlaridan keyingi guruh ko‘rsatkichlari tajriba-sinov ishlaridan oldingi talabalar ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik-statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o‘rta qiymatlar, o‘rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, Studentning tanlanma mezoni, Student mezoni asosida erkinlik darajasi, Pearsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari topildi(8-jadval).

8-jadval

Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germeneytik ta’limotdan foydalanish bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko‘rsatkichlari

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
2,33	1,87	0,5211	0,6731	1,15	1,68	11,22	1304	125,6	0,05	0,06

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lumki, $\bar{X}=2,33$; $\bar{Y}=1,87$; $\Delta_x = 0,05$; $\Delta_y = 0,06$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

$$K_{yc\bar{o}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,33 - 0,05}{1,87 + 0,06} = \frac{2,28}{1,93} \approx 1,18 > 1;$$

$$K_{\bar{o}\bar{o}\bar{o}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,33 - 0,05) - (1,87 - 0,06) = 2,28 - 1,81 = 0,47 > 0;$$

Olingan natijalardan talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germeneytik ta’limotdan foydalanish bo‘yicha ta’lim samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi bilan va bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligi bilan ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori (15,4% foiz) ekan. Demak, tadqiqot natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini va bizning ko‘zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko‘rsatadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germeneytik ta’limotdan foydalanish asosida qo‘llanilgan trenerlik dasturlari, metodik tizimdan foydalanish sinov metodikasi samarador bo‘lib, o‘tkazilgan tajriba-sinov tahlillari uni respublikamiz OTMlari miqyosida ommalash-tirish mumkinligiga asos bo‘ladi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar natijalari tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Pedagogik manbalarni o'rganish, turli davrlarda vujudga kelgan didaktik yondashuvlarni tahlil qilish va ahamiyatlilik darajasini aniqlash natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda hermenevtik ta'limotdan foydalanib matn tuzishning metodik xususiyatlari va o'quv topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik, hermenevtik topshiriqlarni bajarishga ongli yondashish, didaktik, o'qish va o'rganishning tizimli xarakter kasb etishi, tilshunoslikda mashq, savol va topshiriq tushunchalariga oid komponentlar bilan hermenevtik matn tuzishning ichki va tashqi yo'nalishlardagi integratsiyasini real ta'limiy sharoitlarda qo'llash asosida ko'plab nazariy-metodik, pedagogik-psixologik, aniqlik, modellashtirish, lingvodidaktik yondashuvlarga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ona tili o'qitish metodikasi sohasida yechimini kutayotgan dolzarb masala ekanligini asoslash imkonini berdi.

2. Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda hermenevtik ta'limotdan foydalanish, matn tuzishda hermenevtik, pragmatik yondashuv asosida takomillashtirildi, ya'ni mashq, savol va matn tushunchalariga pedagogik, psixologik va lingvodidaktik vazifalar hamda matn bilan ishlash uchun matn va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda suhbatdoshga nutq vaziyatidan kelib chiqib savol berishning darajalari aniqlandi, lingvodidaktikada savol tuzishga hermenevtik, pragmatik usulda yondashishni belgilovchi mexanizmlar ishlab chiqilganligi bilan xarakterlanadi.

3. Hermenevtik usulda yondashishni belgilovchi nutqiy mezonlar, ya'ni infografika asosida tushuntirishga doir hermenevtik yondashishda ish shaklini baholash, pedagogik ta'lim traektoriyalarini nazariy va amaliy belgilash, ona tili ta'lim mazmuniga xizmat qiluvchi elektron bibliografik axborot qidirish, mediata'lim texnologiyalari asosida talabalar tomonidan o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish didaktik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

4. Oliy ta'lim tizimida hermenevtik ta'limotdan foydalanishning mavjud holati, matn turlari, matn vazifaviy farqlanishlari, mashqlarning ona tili fanidan hermenevtik rivojlantirish imkonini beruvchi, hermenevtik ta'limot asosida didaktik ta'minoti ona tili ta'limi mazmunini rivojlantirishda nazariy jihatlari va metodik ta'minoti kontekstual, differensial-semantik, mantiqiylik, bosqichli ketma-ketlik tamoyillari asosida lingvodidaktik xususiyatlari kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

5. Ona tili o'qitish metodikasida hermenevtik ta'limotdan foydalanishning mavjud holati, o'quv matnlarini pedagogik va pragmatik jihatdan takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi, informatsion va innovatsion metodik yondashuvlarni imitatsiyalashda tizimlilik, izchillik g'oyalarini generatsiyalash, kompetension tizimga ustuvorlik berish kabi tilshunoslik fanlaridan didaktik-metodik vazifalarni o'rganishga doir hermenevtik-kompetensiyaga oid ona tili ta'lim topshiriqlarini tashkil etish va ularni baholash mexanizmlari yaxlit tizim ekanligini asoslashga imkon yaratadi.

6. Germenevtika ta'limotidan ona tili fanidan matn tuzishga doir bilish darajalari bilan bog'liq mediatexnologik, kommunikativ, metodik, pedagogik-psixologik, informatsion, kreativ, innovatsion va maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beruvchi, lingvodidaktik tavsiflash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga muvofiqlashtirilgan o'quv adabiyotlarida savol, mashq va matn turlarining berilishi o'rganildi, shuningdek, keyingi yillarda germenevtik ta'limotni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga qisman munosabat bildirildi.

7. Oliy ta'limda talabalarning germenevtik ta'limotga oid kompetensiyasini rivojlantirishda amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida germenevtik ta'limot tizimining tamoyillari, ta'lim oluvchi, ta'lim natijalari tan olinishi, didaktik ta'minoti ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda nazariy jihatlar va metodik ta'minoti kontekstual, differensial-semantik, mantiqiylik, bosqichli ketma-ketlik tamoyillari asosida germenevtik ta'limotni takomillashtirishning ilmiy-nazariy ahamiyatini belgilaydi.

8. Oliy ta'limda ta'lim tizimining ona tili ta'lim mazmunida o'qitish, matn tuzish metodikasiga oid o'quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, matn ustida (insho, hisobot tayyorlash, axborot qidirish, bibliografik qidiruv), ishlash, grafik organayzerlardan foydalanish orqali nutqiy ko'nikmalar rivojlanganligi, talabalarga ona tili fanlarini to'g'ri va mantiqli matn tuzishga o'rgatish metodlarining didaktik va metodologik asoslari o'rganildi.

9. Talabalarni germenevtik ta'limot asosida ona tili ta'lim topshiriqlarini o'rgatish hamda ularning faoliyatini baholash bo'yicha talabalar, asosan, o'qituvchilar tomonidan platformaga yuklangan, talabalar uchun taqdim qilingan topshiriqlarni mustaqil bajaradilar, germenevtik ta'limotlar asosida metodik, pedagogik tizimi uchun tilshunoslik fanlaridan germenevtik yondashishning ilmiy-nazariy va didaktik usullari ko'rsatib berildi.

10. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari davomida aniq metodika qo'llanilib, natijalar talabalarda germenevtik ta'limotning rivojlanganligi germenevtik tizimi uchun tilshunoslik fanlaridan didaktik-metodik vazifalarni o'rganishga doir metodik yondashuvlarni imitatsiyalashda tizimlilik, transformatsiya, izchillik g'oyalarini generatsiyalash, pedagogik ta'lim traektoriyalari doirasida aniqlandi. Bu esa tadqiqot konsepsiyasi to'g'riligi va nazariy jihatdan asoslanganligini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

xorijiy va mahalliy tajribalarga tayangan holda germenevtik yondashuvlarga asoslangan topshiriqlar va ularni baholash mezonlarini tilshunoslikka doir metodik-pedagogik turkum fanlar mazmuniga singdirish;

germenevtik ta'limotga asoslangan holda talabalarni lingvistik tadqiqotlar olib borishga yo'naltirish hamda ilmiy yangiliklarni tezkor yetkazish maqsadida "Germenevtik Lingvopedagogika" elektron ilmiy jurnalini tashkil etish;

OTMlarda ona tili ta'limi mazmunini takomillashtirishda "germenevtik ta'limotga asoslangan o'qitish metodikasi" kafedrasini tuzish;

germenevtik ta'limotga asoslangan lingvopedagogika sohasini rivojlantirish maqsadida "Germenevtik lingvopedagogika" ilmiy-laboratoriyasini yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.04.2021.PED 82.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

КАЗИЕВА ТУРГУНОЙ ТУРСУНБАЕВНА

**ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО ПОДХОДА
В РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТЕЙ АУДИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ**

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (узбекский язык)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ НАУЧНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА НАУК (DSc) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ЧИРЧИК- 2024

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.2DSc/Ped518

Диссертация выполнена в Андижанском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.chdpu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный консультант:

Юсупова Шохида Жалолдиновна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Сафо Муродович Матчанов
доктор педагогических наук, профессор
Ахмедова Малохат Эргашевна
доктор педагогических наук, доцент
Ниёзметова Роза Хасановна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится « 13 » 02 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета № DSc.03/30.04.2021.Ped82..01 при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: ((99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41; e-mail:chspi-kkengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № 33). Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: ((99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41.

Автореферат диссертации разослан « 02 » 02 2024 года.

(протокол реестра рассылки № 4 от 02.02 2024 года).



У.И.Ходжиамкулов
Председатель Научного совета
по присуждению научных степеней,
доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ф. Раджабов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

В.Б.Файзиёв
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных степеней,
доктор педагогических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В нынешнюю эпоху глобализации в мире приоритетным является изучение тех или иных языков как средств общения, преподавание каждого языка в живом состоянии, вместе с тем внутренняя и внешняя лингвистика пересекаются. Ведь основная задача языка состоит в формировании общения-взаимодействия между людьми, в образовательных учреждениях возрастает значение сосредоточения внимания на коммуникативных целях. А это ещё более усиливает потребность в совершенствовании общения учащихся, повышению у них умения и навыков свободной речи, модернизации содержания обучения родному языку в целевом использовании языкового материала, а также необходимости совершенствования методики применения современных педагогических технологий, повышения профессиональной компетентности педагога. Обучение языку как средству общения признается ведущим направлением в США, Австралии, Великобритании, Германии, Франции, Японии, Китае, России и ряде других стран, модернизируются стили обучения. Актуальное значение приобретает установление практической значимости научных и методических вопросов, связанных с обучением современным языкам, разработка практических механизмов передачи родного языка учащимся на основе методов общения и креативных подходов. В странах мира ведутся исследования, направленные на обоснование необходимости взглядов на изучение языка через компетентно-лингвистическую и коммуникативную деятельность в усилении роли антропоцентрических или герменевтических принципов обучения. Важную актуальность приобретает разработка практико-методического и научно-методического обеспечения развития методической компетентности студентов в области лингвистических единиц на основе герменевтических учений, адаптивное применение традиционных и нетрадиционных форм расширения возможностей дистанционного и самостоятельного обучения в области филологического образования, разработка лингвометодической системы.

”Нормативно-правовые акты, касающиеся образования, предусматривают повышение качества и эффективности образования, воспитание молодежи, обладающей способностями к творчеству, логическому созерцанию, успешному межкультурному общению, создание необходимых условий для проявления у нее интеллектуальных способностей и становления духовно гармоничной личностью”³, что определено как основные стратегические задачи. В этой связи актуальное значение приобретает совершенствование технологий использования герменевтического подхода в развитии навыков понимания, осмысления учащихся.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4997 ”Об организации деятельности Ташкентского государственного

³ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 ”Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» // Национальная база данных законодательных документов, 08.10.2019 г.

университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои“ от 13 мая 2016 года, № УП-5850 "О мерах по радикальному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного" от 21 октября 2019 года, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-6084 “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране” от 20 октября 2020 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования” от 20 апреля 2017 года, Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 24 января 2020 года, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПКМ-304 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы послевузовского образования” от 22 мая 2017 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4479 “О широком праздновании тридцатилетия принятия Закона Республики Узбекистан “О государственном языке”» от 4 октября 2019 года и другими нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности.

Соответствие диссертации приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данная исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. ”Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики”.

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации⁴.

Научные исследования, направленные на технологии осуществления герменевтических учений в развитии способностей аудирования студентов, проводятся в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в университете Майами Южной Калифорнии, центре Стенфорда (Соединённые Штаты Америки), Научно-исследовательском центре и институте прикладной информатики Карслуэ (Forschungszentrum Karlsruhe, Insitut für Angewandte Informatik, Германия), Институте технологий Лозанны (Swiss Federal Institute of Technology Lausanne, Швейцария), международных научных обществах (Society in Europe for Simulation Applied to edukeyshen, Society for Simulation in Healthcare, Дания, Соединённые Штаты Америки), Китайском национальном институте педагогических исследований (NIES, Гуанчжу), Национальном университете Сеула (Южная Корея), Первом Московском государственном университете имени Сеченова и Казанском государственном университете (Российская Федерация).

В результате проведенных в мире исследований по технологиям реализации герменевтического учения в развитии навыков аудирования учащимися получены научные результаты по технологиям, позволяющим

⁴При написании данной части были использованы следующие источники: Aerila J.A., & Ronkko M.L. Enjoy and interpret picture books in a child-centered way. *The Reading Teacher*, 68, 2015. 349-356; Bland J. Children’s literature and learner empowerment: Children and teenagers in English language education □ London, United Kingdom: Bloomsbury. 2013; Brahms L., Wardrip P.S. Making with young learners: An introduction. *Teaching Young Children*, 9 (5), 2016. -P.6-8.; Epstein A.S. The intentional teacher: Choosing the best strategies for young children’s learning (Rev. ed.). Washington, DC: National Association for the Education of Young Children. 2014; Galda □ L., Liang L.A., & Cullinan B.E. *Literature and the child* (9th ed.). Boston, MA: Cengage Learning. 2017.

